e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/pnprd075

KALKALASH ORQALI HOSIL QILINGAN ARAB DIPLOMATIK TERMINLARI

Mirziyatov Shuhrat
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti(PhD), dotsent
Orcid: https://orcid.org/0009-0007-9142-6400

Annotatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy arab diplomatik terminologiyasida kalkalash (nusxa ko'chirish) hodisasi va uning tarkibiy-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Ingliz va fransuz tillari ta'sirida shakllangan xalqaro siyosiy hamda diplomatik tushunchalarning arab tili ichki imkoniyatlari asosida aks etishi qiyosiy-lingvistik tahlil qilingan. Tadqiqot davomida diplomatik diskursda faol qo'llaniladigan struktur va semantik kalka modellari jonli nutqiy misollar yordamida yoritib berilgan. Shuningdek, arab tilining xalqaro diplomatik terminlarni qabul qilish va moslashtirish salohiyati nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: arab tili, diplomatik terminologiya, kalkalash, struktur kalka, semantik kalka, xalqaro huquq, diplomatik diskurs, izofa birikmasi, o'zlashma tarjima, terminologik tizim.

АРАБСКИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ТЕРМИНЫ, ОБРАЗОВАННЫЕ ПОСРЕДСТВОМ КАЛЬКИРОВАНИЯ

Мирзия́тов Шухрат
Ташкентский государственный университет востоковедения, доцент(PhD)

Аннотация.

В статье исследуется явление калькирования (переводного заимствования) в современной арабской дипломатической терминологии и его структурно-семантические особенности. Проведён сопоставительно-лингвистический анализ способов отражения международных политических и дипломатических понятий, сформировавшихся под влиянием английского и французского языков, на основе внутренних ресурсов арабского языка. В ходе исследования на конкретных примерах живой речи освещены структурные и семантические модели кальки, активно используемые в дипломатическом дискурсе. Кроме того, теоретически обоснована способность арабского языка воспринимать и адаптировать международные дипломатические термины.

Ключевые слова: арабский язык, дипломатическая терминология, калькирование, структурная калька, семантическая калька, международное право, дипломатический дискурс, конструкция идафа, переводное заимствование, терминологическая система.

ARABIC DIPLOMATIC TERMS FORMED THROUGH CALQUING

Mirziyatov Shuhrat
Tashkent State University of Oriental Studies PhD, Associate Professor

Abstract.

This article examines the phenomenon of calquing (loan translation) in modern Arabic diplomatic terminology and its structural-semantic features. A comparative linguistic analysis is conducted of how international political and diplomatic concepts formed under the influence of English and French are represented through the internal resources of the Arabic language. The study highlights structural and semantic calque models actively used in diplomatic discourse, supported by authentic examples of language use. It also provides a theoretical justification for the capacity of the Arabic language to adopt and adapt international diplomatic terms.

Keywords: Arabic language, diplomatic terminology, calquing, structural calque, semantic calque, international law, diplomatic discourse, iḍāfa construction, loan translation, terminological system.

Kirish. Arab leksikologiyasi sohasida tadqiqot olib borgan qator olimlar arab tilida termin yasashning bir

ISSN 3060-5059 (Online)

necha asosiy usullari mavjudligini qayd etganlar. Ular o‘z tadqiqotlarida arab terminologiyasida yeni atamalar hosil qilish jarayoni, asosan, to‘rttagacha usul orqali amalga oshirilishi mumkinligi haqida xulosa bildirganlar. Sabri Ibrohim as-Said, Ali al-Qosimi va Muhammad al-Tavonjilar termin hosil bo‘lishi haqida bir-biriga yaqin fikrlar bildirib, kalkani tarjimaning bir turi deb baholaganlar. Shundan kelib chiqib, arab tilida kalka masalasi bevosita o‘zlashmalarni tarjima qilish degan tushuncha bilan kesishadi.

Arab diplomatik terminologiyasida kalkalash asosan ingliz va fransuz tillari ta’sirida shakllangan. Chunki zamonaviy diplomatiya, xalqaro huquq, xalqaro tashkilotlar va tashqi siyosat sohalarida ko‘plab tushunchalar Yevropa tillari orqali xalqaro muomalaga kirgan. Arab tili esa bu terminlarni o‘z ichki leksik va grammatik imkoniyatlari asosida tarjima qilib, arabcha terminologik birikmalar hosil qilgan. Ko‘rinib turganidek, kalkalash, ya’ni boshqa tillardan nusxa olib yangi so‘z yasash o‘zbek tili leksikasida ham muhim o‘rin egallaydi. Arab diplomatik diskursida kalkalash muhim termin yasash usullaridan biri hisoblanadi. Bu usul orqali xalqaro siyosat, BMT tizimi, diplomatik munosabatlar, xalqaro huquq va mintaqaviy tashkilotlarga oid ko‘plab terminlar arab tiliga moslashtirilgan.

Metod. Kalkalash tarjima nazariyasi va leksikologiya oralig‘ida turuvchi o‘ta murakkab til hodisasi bo‘lganligi sababli, uning tabiatini ochib berish ko‘p bosqichli metodologik yondashuvni talab etadi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini xalqaro diplomatik terminologiyaning arab tilida aks etish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan qiyosiy-lingvistik va struktur-semantik tahlil metodlari tashkil etadi. Kalkalash usulining bosh xususiyati shundaki, qabul qilingan yangi termin tashqi formasi, ya'ni qurilishi jihatidan arab tilining o‘z leksik birliklaridan tashkil topsa-da, uning ichki ma’no modeli (semantik strukturasi) xorijiy manba-til (asosan ingliz tili) modeli asosida shakllanadi.

Tadqiqot jarayonida terminlarning shakllanish va moslashish mexanizmlarini ochib berish uchun kalkalash hodisasi ikki asosiy yo‘nalishda tahlil etildi:

Struktur-semantik modellashtirish metodi: Bu metod orqali ingliz tilidagi ko‘p komponentli diplomatik birikmalar va ularning arabcha muqobillari tarkibiy qismlarga (morfema va lekesemalarga) ajratilib, grammatik moslashuv qoliplari o‘rganildi. Bunda inglizcha termin modelining arab tilidagi isofa (genitive construction) hamda ot+sifat (noun+adjective synthesis) konstruksiyalariga ko‘chish qonuniyatlari aniqlandi.

Semantik transformatsiya tahlili: Mazkur yondashuv yordamida arab tilining o‘z qatlamiga mansub bo‘lgan an’anaviy so‘zlarning xalqaro diplomatik diskurs ta’sirida o‘z funksional doirasini kengaytirishi, ularga yangi determinatsiyalangan (qat’iy siyosiy-huquqiy) ma’nolar yuklanishi jarayoni lisoniy faktlar vositasida tekshirildi.

Tadqiqotning empirik bazasini to‘plashda va nazariy umumiylikni ta'minlashda tilshunos olimlarning tasniflariga tayanildi. Xususan, xalqaro leksikologiyada kalkalash hodisasining tabiati turlicha baholanib, uning ikki turi - to‘liq kalka (har bir komponentning aniq nusxalanishi) va yarim kalka (termin tarkibida ham o‘z so‘zi, ham xorijiy komponentning aralash kelishi) ko‘rsatiladi. Shuningdek, o‘zbek arabshunosligida E. Shoahmedov tomonidan taklif etilgan struktur kalka va semantik kalka tasnifiy prinsiplari tadqiqotning tizimli yo‘nalishini belgilashda yetakchi mezon qilib olindi.

Tadqiqot materiallari asosan zamonaviy arab rasmiy axborot vositalari (masalan, Al-Jazeera, Al-Arabiya diplomatik korpusi matnlari), BMT rezolyutsiyalarining arabcha rasmiy nashrlari hamda xalqaro shartnomalar matnlaridan ajratib olindi. Yig‘ilgan leksik materiallar quyidagi bosqichma-bosqich algoritm asosida tahlil qilindi:

Inglizcha original diplomatik termin va uning arabcha muqobili aniqlandi;

Birliklarning lisoniy tabiati (sodda so‘z yoki birikma ekanligi) strukturaviy jihatdan qiyoslandi;

Arabcha variantning nutqiy kontekstdagi (jonli siyosiy diskursdagi) ma’noviy aniqligi va uslubiy muvofiqligi lingvistik tahlil etildi.

Natijalar. Lingvistik tahillar natijasida arab diplomatik terminologiyasida kalkalashning struktur va semantik modellari hamda jonli nutqiy misollari aniqlandi.

Struktur kalka modellari

Ingliz tilida birikma terminlar hech qanday biriktiruvchi vositalar talab qilmay ikki yoki undan ortiq so‘zning o‘zaro birikishi bilan hosil bo‘ladi. Arab tilida esa ular o‘z grammatik qoidalariga (izofa yoki ot+sifat modellariga) moslashtirilgan:

- **Security Council → مجلس الأمن [majlis al-amn]:** (Security – أمن [amn], Council – مجلس [majlis]). Izofa shaklida qurilgan.

Misol: qāma bi-tanbīh Majlis al-Amn li-hādhā al-amr mundhu 'ām 2002) - “U 2002-yildan beri bu masala bo‘yicha Xavfsizlik Kengashini ogohlantirib kelganini qo‘shimcha qildi.”

- **United Nations General Assembly → [al-jam'iyya al-'āmma li-l-umam al-muttaḥida]:** (General Assembly – الجمعية العامة [al-jam'iyya al-'āmma]). Sifat otdan keyin kelgan.

Misol: ... (...li-l-mushāraka fī al-ijtimā'āt as-sanawiyya li-l-Jam'iyya al-'āmma li-l-Umam al-Muttaḥida...) - “...BMT Bosh Assembleyasining yillik yig‘ilishlarida ishtirok etish uchun...”.

 ISSN 3060-5059 (Online)

- **International Law → القانون الدولي [al-qānūn ad-duwalī]:** (Law – القانون [al-qānūn], International – الدولي [ad-duwalī]). Ot + nisbiy sifat modeli.

Misol: ... [171]...الدولي (...inna binā'a al-mustawṭanāt mukhālif li-l-qānūn ad-duwalī wa-yantahik al-qānūn ad-duwalī...) - "...aholi punktlarini qurish xalqaro huquqqa zid va xalqaro huquqni buzadi..."

- **International Community → المجتمع الدولي [al-mujtama' ad-duwalī]:** (Community – المجتمع [al-mujtama'], International – الدولي [ad-duwalī]).

Misol: ... أجل إحياء عملية السلام (Da'ā al-Urdun wa-Almāniyā as-sabt al-mujtama' ad-duwalī ilā takthīf al-juhūd min ajl iḥyā' 'amaliyyat as-salām...) — "Iordaniya va Germaniya shanba kuni Xalqaro hamjamiyatni tinchlik jarayonini qayta jonlantirish uchun sa'y-harakatlarni kuchaytirishga chaqirdi."

- **Diplomatic relations → العلاقات الدبلوماسية [al-'alāqāt ad-diblūmāsiyya]:** Ot + sifat modeli. □□□□□□□□□□□□ so'zi o'zlashma bo'lsa-da, arab tili morfologiyasiga to'liq moslashgan.

Shuningdek, struktur jihatdan *Foreign policy* → الخارجية السياسة [as-siyāsa al-khārijiyya], *Internal affairs* → الداخلية الشؤون [ash-shu'ūn ad-dākhiliyya], *sovereignty of states* → الدول سيادة [siyādat ad-duwal] kabi ko'plab terminlar kalkalab tarjima qilinganligi aniqlandi.

Semantik kalka modellari

Mavjud arabcha so'zlarga xalqaro diskurs ta'sirida yangi maxsus ma'nolar yuklanishi aniqlandi:

- **عملية ['amaliyya]** (umumiy ma'nosi: jarayon, amal, operatsiya) → **عملية السلام ['amaliyyat as-salām]** (tinchlik jarayoni).
- **حل [ḥall]** (umumiy ma'nosi: yechim) → **حل الدولتين [ḥall ad-dawlatayn]** (ikki davlat yechimi).
- **السيادة [as-siyāda]** (umumiy ma'nosi: hukmronlik, boshchilik) → (siyosiy-huquqiy ma'nosi: sovereigntyt).

Misol: - "Xalqaro huquq nuqtai nazaridan, sovereignty davlatning huquqiy shaxsligini anglatadi."

- **الاعتراف [al-i'tirāf]** (umumiy ma'nosi: tan olish, e'tirof etish) → (diplomatik ma'nosi: davlat yoki hukumatni rasman tan olish / recognition).

Misol: - "Bugun BMTga a'zo 193 davlatdan 147 tasi Falastin davlatini tan oladi."

Boshqa misollar: **الوساطة [al-wasāṭa]** – vositachilik, **التطبيع [at-taṭbī']** – normallashuv kabi terminlar semantik kalkaga yorqin misoldir.

Sodda terminga ko'p komponentli kalka taklif qilish modellari

- **Ceasefire (sodda termin) → وقف إطلاق النار [waqf iṭlāq an-nār]** (uch komponentli birikma termin: وقف [waqf] – to'xtatish, إطلاق [iṭlāq] – otish, نار [nār] – olov).

Misol: ودعا البيان الطرفين إلى "الالتزام الكامل بوقف إطلاق النار، وممارسة أقصى درجات ضبط النفس..." - "Bayonot ikki tomonni "o't ochishni to'xtatishga to'liq amal qilishga, ushbu nozik bosqichda maksimal darajada o'zini tiyishga..." chaqirdi."

- **Sanctions (sodda termin) → العقوبات الدولية [al-'uqūbāt ad-duwaliyya]** (ot + sifat modeli; العقوبات – jazo choralari, الدولية – xalqaro).

Misol: ... تعليق العقوبات الدولية على إيران — "BMT Xavfsizlik Kengashi juma kuni Eronga nisbatan xalqaro sanksiyalarni to'xtatib turish muddatini uzaytirish haqidagi rezolyusiya loyihasini qabul qila olmadi..."

Muhokama. Semantik kalka va struktur kalka o'rtasidagi farqlar va ularning nazariy asoslari ilmiy adabiyotlarda "loan translation", ya'ni o'zlashma tarjima sifatida talqin qilinadi.

Tahillar shuni ko'rsatadiki, struktur kalkada xorijiy terminning tuzilishi (morfema-morphema asosi) to'liq saqlangan bo'lsa, semantik kalkada esa qabul qiluvchi tildagi mavjud so'zga yeni ma'no yuklanadi. Demak, semantik kalkada asosiy jarayon - ma'noning o'zlashishi hisoblanadi.

Arab tili va uning xalqaro tashkilotlardagi o'rni nuqtai nazaridan, Arab Ligasi Ta'lim, Madaniyat va Ilmiy Tashkiloti (ALECSO) Nizomining 3-bandida bayon etilgan prinsiplar muhim ahamiyatga ega:

"Waḍ" (Waḍ' muṣṭalaḥāt al-'ulūm wa-l-funūn wa-ta'rīb al-alfāẓ al-ajnabiyya) - "Ilmiy atamalarni yaratish va arablashtirish."

Bu qoidadan foydalanib, o'zlashmalarga o'z tilidagi terminlar taklif qilish masalasi bevosita kalkalash lingvistik jarayoni (ترجمة 'tarjima' tushunchasi) bilan kesishishi isbotlandi[168]. Biroq, arab tilshunosligida kalkalashning turlari bo'yicha mukammal lingvistik modellar tizimi batafsil berilmaganligi sababli, amaliyotda inglizcha sodda terminlarga arabcha ko'p komponentli variantlar (masalan: *normalization* uchun *[taṭbī' al-'alāqāt]* , *escalation* uchun *[taṣ'īd at-tawattur]* , *settlement* uchun *[taswiyat an-nizā']*) taklif qilinishi kuzatiladi.

Ilmiy jihatdan semantik kalka terminologiyani boyitishning o'ta muhim vositasidir. U bir tomondan, xorijiy terminni to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish zaruratini kamaytiradi; ikkinchi tomondan, milliy tilning ichki leksik imkoniyatlaridan unumli foydalanishga keng sharoit yaratadi.

Xulosa. O'tkazilgan lingvistik, qiyosiy va tarkibiy tahillar asosida arab diplomatik terminologiyasida kalkalash (nusxa ko'chirish) usulining o'rni va funksional tabiati bo'yicha quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Tizimli integratsiya va moslashuvchanlik: Arab diplomatik terminologiyasida kalkalash shunchaki so'zma-so'z tarjima qilish jarayoni emas, balki arab tilining o'z ichki leksik-morfologik vositalari hamda sintaktik

qoidalari (xususan, izofa tizimi va ot+sifat modellari) asosida xalqaro tushunchalarni qayta shakllantiruvchi yetakchi va samarali usullardan biridir. Bu usul xalqaro munosabatlardagi eng murakkab konseptlarni ham arab tilining tabiati va oʻziga xos qoliplariga mos ravishda silliq integratsiya qilish imkonini beradi.

Leksik va semantik boyish mexanizmi: Mazkur jarayon arab tilida terminologik tizimning muntazam yangilanishi va faollashuvini taʼminlaydi. Ayniqsa, semantik kalkalash orqali tilda mavjud boʻlgan anʼanaviy soʻzlarga (*as-siyāda* , *al-iʼtirāf* , *ʼamaliyya* kabi) xalqaro siyosiy-huquqiy diskurs taʼsirida yangi, qatʼiy chegaralangan maxsus maʼnolar yuklanishi tilning ichki imkoniyatlarini namoyish etadi. Bu esa xorijiy terminlarni toʻgʻridan-toʻgʻri fonetik oʻzlashtirish (transliteratorlik) zaruratini sezilarli darajada kamaytiradi va milliy tilning leksik mustaqilligini saqlab qoladi.

Sodda va koʻp komponentli ekvivalentlar muvozanati: Tadqiqotda ingliz tilidagi sodda (bir komponentli) terminlarga arab tilida koʻp komponentli birikmali kalkalar (*ceasefire* uchun *waqf iṭlāq an-nār*, *sanctions* uchun *al-ʼuqūbāt ad-duwaliyya*) taklif qilinish tendensiyasi aniqlandi. Bu holat arab tilining analitik tavsiflashga boʻlgan moyilligini hamda diplomatik tushunchalarning mazmunan aniq va bir maʼnoli ifodalanishiga xizmat qilishini koʻrsatadi.

Amaliy va global ahamiyati: Struktur va semantik kalkalar xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT va Arab Ligasi (ALECSO) prinsiplariga muvofiq, global diplomatik normalarni, xalqaro shartnomalar, rezolyutsiyalar va rasmiy bayonotlar matnini arab tilida maʼnoviy va uslubiy jihatdan benuqson, xatolarsiz aks ettirishda asosiy lingvistik mexanizm vazifasini oʻtamoqda. Arab tili jahon sahnasida universal diplomatik muloqot vositasi sifatida oʻz mavqeyini mustahkamlab borishida kalkalash hodisasi doimiy rivojlanuvchi dinamik tizim boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sabri Ibrohim as-Said. Al-Mustalah al-Lughawi: Dirasa fi binat al-mustalahat al-arabiyya . Al-Qahira, 1998.
2. Ali al-Qosimi. Mu'jam al-Mustalahat al-Siyasiyya va al-Diblomasiyya . Bayrut: Maktabat Lubnan, 2001.
3. Muhammad al-Tavonji. Al-Mu'jam al-Mufassal fi al-Adab va al-Lugha . Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1993.
4. Majallat al-Lugha al-Arabiyya . Qohira Ilmiy akademiyasi jurnali, No. 44, 2003.
5. ALECSO Nizomi hujjati. Wathā'iq al-Munazzama al-Arabiyya li-t-Tarbiya va al-Thaqafa va al-Ulum . Tunis, 2010.
6. Axmanova O.S. Dictionary of Linguistic Terms . Moscow: Sovetskaya Ensiklopediya, 1966.
7. Shoahmedov E. Arab tili leksikologiyasi va terminologiyasi masalalari. Toshkent: TDSHI, 2005.
8. Al-Jazeera Media Network . Diplomatik va xalqaro munosabatlar korpusi axborot matnlari, 2024.
9. Haugen E. The Analysis of Linguistic Borrowing . Language, Vol. 26, No. 2, 1950.